



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

Alohidat a'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lif muassasalari (maktab va maktab-internatlar) hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta'lif olishi uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirining 2023-yil 15-maydagi 125-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lif maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasi hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan tasdiqlangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

a) Alohidat a'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lif muassasalarining (maktab va maktab-internatlar) (keyingi o'rinnarda -ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari) 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalarini 1-13-ilovalarga muvofiq;

b) jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta'lif olishi uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalarini 14-18-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Joriy o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lif maktablarining 1-sinfida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani joriy etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmalari boshliqlariga:

uch kun muddatda mazkur buyruqni barcha turdag'i ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalariga yetkazish;

o'quv jarayonini mazkur buyruq bilan tasdiqlangan tayanch o'quv rejalarini va tushuntirish xatlari asosida tashkil etilishini hamda ularning to'liq bajarilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirining 2022-yil 26-avgustdagi "Alohidat a'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lif muassasalari (maktab va maktab-

internatlar) hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta’lim olishi uchun 2022-2023-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 282-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev hamda vazir o‘rinbosari D.Kenjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “26” avgust,
266 - son